

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2025-yil
3–4-oktabr kunlari o‘tkazilgan “SMART materiallar kimyosi va ularning
O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi istiqbollari” mavzusida
respublika ilmiy-amaliy anjuman**

HISOBOTI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2025-yil 3-4 oktabr kunlari **“SMART materiallar kimyosi va ularning O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi istiqbollari”** mavzusida anjuman bo‘lib o‘tdi. Mazkur anjuman kimyo fanlari doktori, professor Muhamadiyev Nurali Qurbonaliyevichning 70 yoshga to‘lishi va ilmiy-pedagogik faoliyatining 50 yilligiga bag‘ishlandi. Anjumanning yalpi ochilish marosimi 2025-yil 3-oktabr kuni Biokimyo institutining faollar zalida soat 10 00 da boshlandi. Anjumanni Samarqand davlat universiteti prorektori S.Abbasov ochib berib unda professor Muhamadiyev Nurali Qurbonaliyevichning 70 yoshga to‘lganini qutlab uning kelgusidagi ishlariga omad zafarlar tilab anuman ishiga muvaffaqiyat tiladi.



Anumanda kimyo sohasining eng yetuk professor-o‘qituvchilari soha mutaxassialri ishtirok etishdi. Anjuman viloyatimizning turli hududlaridan kelgan professor-o‘qituvchilarda anjumanda juda kata tassurot uyg‘otdi. Anjuman kimyo sohasining O‘zbekistondagi o‘rni va uning ahamiyati haqida fikr almashildi.

So‘nggi yillarda fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi natijasida “aqli materiallar” deb nom olgan SMART materiallar keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu

materiallar tashqi ta'sirga (harorat, bosim, yorug'lik, magnit maydoni) javob qaytarib, o'z xossalarini o'zgartirish qobiliyatiga ega.



SMART materiallarning kimyoviy tuzilishi va fizik mexanizmlari ularga o'z-o'zini tiklash, shaklini eslab qolish, sezgirlik va moslashuvchanlik kabi noyob funksiyalarni ta'minlaydi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham yangi texnologik yechimlarga asoslanayotgan sharoitda SMART materiallar tarmoq va sohalarning innovatsion rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Ilmiy ishlar va inovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



H.Xushvaqtov

